

Components Of The Methodology For Developing Independent Work Communication Skills In Future Primary Teachers

Nargiza Alijonovna Ganiyeva

Tashkent International University of Financial Management and Technologies, Lecturer, Department of "Pedagogy and Psychology"

Malikabonu Elyor qizi Egamkulova

Tashkent International University of Financial Management and Technologies, Department of "Pedagogy and Psychology"

3rd year student of the Pedagogy department

Annotation

This article analyzes the structural components of the methodology for developing communicative skills for independent work in future primary school teachers. The formation of communicative skills in the process of independent work is considered an important factor in the development of a teacher's professional training, communication culture and pedagogical skills. According to the results of the study, the main components of the methodology are motivational-communicative, cognitive, practical and reflexive-evaluative components, the interconnection of which serves to form effective communicative competence in future teachers. The article also highlights the impact of these components on the professional development of the teacher's personality, their importance in the process of organizing independent activity.

Keywords: future teacher, communicative skills, independent work, methodology, component, pedagogical competence.

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mustaqil ishlash kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining tarkibiy komponentlari tahlil qilingan. Mustaqil ishlash jarayonida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, muloqot madaniyati va pedagogik mahoratini rivojlantirishda muhim omil sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, metodikaning asosiy tarkibiy qismlari – motivatsion-kommunikativ, kognitiv, amaliy hamda refleksiv-baholovchi komponentlardan iborat bo'lib, ularning o'zaro uzviyligi bo'lajak o'qituvchilarda samarali kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada ushbu komponentlarning o'qituvchi shaxsining kasbiy rivojlanishiga ta'siri, mustaqil faoliyatni tashkil etish jarayonidagi ahamiyati ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, kommunikativ ko'nikma, mustaqil ishlash, metodika, komponent, pedagogik kompetensiya.

Kirish Biz bugun tanlagan mavzumiz haqida ilmiy tahlillarimizni berar ekanmiz Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'limiy va tarbiyaviy isloxlarning maqsadi komil insonni shakllantirishdir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ishlashda kommunikativ ko'nikmalarni ahamiyati beqiyosdir. *Kommunikativ qobiliyat* - bu pedagogik o'zaro harakat sohasida maxsus ko'rinishga ega bo'lgan muloqotga qobiliyatlilikdir.

Psixologik adabiyotlarda kommunikativ qobiliyatlarning bir qancha turlari ajratib ko'rsatiladi:

- insonning insonni tushuna olishi;
- insonni o'z-o'zini anglay olishi;
- muloqot vaziyatini to'g'ri baholay olish ko'nikmasi.

Xorijlik pedagog olimi N.V.Kuzmina boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qiyofasini quyidagi yondashuv asosida shakllantirishni tavsiya etadi:

- kasbiy bilimga ega bo'lish;
- loyihachi bo'lish;

- konstruktiv bo'lish;
- maslahatchi bo'lish;
- tashkilotchi bo'lish.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun samarali muloqot qobiliyatlari juda ham muhim bo'lib, ular murakkab ma'lumotlarni ham qulay tarzida yetkazish, o'quvchilar, ota-onalar hamda hamkasblar bilan mustahkam aloqa o'rnatishi kerak. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun mustaqil ishlash va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish juda muhimdir. Chunki kelajakda ular o'quvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotda bo'ladilar, dars jarayonini boshqaradilar va o'z fikrlarini to'liq ifoda eta olishlari kerak bo'ladi. Shuning uchun ham bu ko'nikmalarni o'qish davridayoq shakllantirish zarur. Bugungi kunda ta'lim tizimida o'qituvchidan nafaqat bilim balki, o'quvchilar bilan ham to'g'ri muloqot o'rnatish, ularni tinglay olish va fikr almasha olish qobiliyati ham talab qilinadi. Shu sababli ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish o'ta muhim hisoblanadi. Ayniqsa, bu jarayonda ham ishlash orqali amalga oshirish talabning shaxsiy faolligini, mas'uliyatini va o'z ustida ishlash malakasini yanada kuchaytirishga yordam beradi.

Bo'lajak o'qituvchilar mustaqil ishlash kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida bir nechta asosiy metodikalarning asosiy qismlaridan foydalanadilar.

Motivatsion kommunikativ komponent - jarayonida yani bu qismda talabalarda o'qituvchilik kasbiga qiziqish uyg'otadi ularda muloqotga ochiqlik va o'z fikrini yanada erkin ifoda etish orqali boshqalarni tinglash madaniyatini shakllantiradi.

Kognitiv komponentda - esa barcha talabalarga samarali muloqot qilish, nutq madaniyati, pedagogik psixologiya shu bilan birga til madaniyati haqida nazariy bilimlar beradi. Shu orqali ular kelajakda o'z darslarini aniq, ravon, tushunarli va ta'sirchan o'tkaza olishadi.

Ushbu komponentlar o'zaro bog'liq holda ishlaganda, talabning nafaqat kasbiy malakasi, balki shaxsiy sifatleri ham rivojlanadi. Talaba o'z fikrini ravon ifoda etishni, jamoada ishlashni, muammolarga to'g'ri yondashishni va o'quvchilar bilan samimiy muloqot o'rnatishni o'rgatadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida o'qituvchi shunchaki bilim beruvchi emas, balki o'quvchi bilan to'g'ri muloqot qila oladigan, uni tinglay oladigan va fikr almashadigan shaxs bo'lishi kerak. Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish eng muhim masalalardan biridir. Ayniqsa, bu ko'nikmalarni mustaqil ishlash orqali rivojlantirish talabning o'z fikrini mustaqil shakllantirish, ijodkorlik bilan yondashish va o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishini oshiradi. O'quvchilarni kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda didaktik o'yinlar va hikoyalar yordamida o'zaro muloqot qilish samarali usul hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda muloqot qobiliyatini shakllantirish ularning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun juda muhim.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muloqotga asoslangan o'quv faoliyatini tashkil qilish, guruhdagi ishlar, bahs-munozaralar uyda bolalar bilan muloqot qilishga doir maslahatlar berish hamda maktabdagi tadbirlarda ishtirok etishga undashga yordam beradi. Misol uchun: talabalar kichik guruhlarda ishlash, dars jarayonida vaziyatli rollar ijro etish, muammoli topshiriqlarni mustaqil hal qilish orqali o'zaro muloqot madaniyatini shakllantiradi. Bunda ular nafaqat o'qituvchi sifatida, balki o'qituvchi sifatida o'zini anglay boshlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida turli metodlar va faoliyatlarni qo'llash o'quvchilarga muloqot qilish o'z fikrlarini aniq ifodalash tinglash yozish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish va ijodiy usullarini qo'llash kerak.

Xulosa Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun mustaqil ishlash asosida kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish kasbiy tayyorgarlikning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Chunki o'qituvchi bolalarga faqat bilim emas, balki muloqot madaniyatini, fikr almashish, o'z fikrini himoya qilish va hurmat bilan tinglashni ham o'rgatadi. Shu sababli pedagogik oliygohlarda mustaqil ishlashga asoslangan mashg'ulotlar, interfaol metodlar, munozarali darslar, hamkorlikda o'qitish usullarini keng qo'llash zarur. Bunday yondashuv natijasida talabalarda nafaqat bilim, balki shaxsiy o'sish, mustaqillik, muloqot madaniyati va kasbiy mas'uliyat

rivojlanadi. Aynan shunday o'qituvchilar kelajakda o'quvchilarga ilhom beradigan, ularni fikrlashga o'rgatadigan haqiqiy pedagoglarga aylanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kommunikativ ko'nikmlarni shakllantirish samarali pedagogik jarayon amaliyotga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi kuchli nazariy asosni talab qiladi. O'qituvchilar uchun ta'lim dasturlari kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiruvchi samarali metadalogiyani ishlab chiqish va amalga oshirish uchun ushbu nazariy tushunchalardan foydalanishi kerak. Ushbu maqolada kelajakdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik asoslarni o'rganishga qaratilgan. Biz ushbu yondashuvda o'qituvchilar ta'limi dasturlariga integratsiyalash orqali biz bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy sinflarning dinamik va kommunikativ talablariga yaxshiroq tayyorlashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti, Toshkent-2017
2. Ivanova O.M. "Bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi"
3. Khutorskoy.A.V."Shaxsiy natijalarga yo'naltirilgan kompetensiyalarni rivojlantirish"
4. Azizxujaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, 2003 yil.
5. Mahkamova G.T. – "Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'lim metodikasi"
6. Qurbonov A. – "Ta'lim jarayonida muloqot kompetensiyasini shakllantirish"
7. Khamraev A. Mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari. Ta'lim va Innovatsiyalar jurnali, 2020. 3(1), 23-31.